


**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

NAMANGAN TO'QIMACHILIK SANOATI INSTITUTI



Ro'yhatga olindi: № _____

2024- yil " " avgust

TRIBOTEXNIKA

O'QUV DASTURI

Bilim sohasi:

700000-Muhandislik, ishlov berish va qurilish sohalari

Ta'lif sohasi:

720000-Ishlab chiqarish va ishlov berish sohalari

Ta'lif yo'nalishi:

60720700- Texnologik mashina va jihozlar (to'qimachilik, yengil va paxta sanoati)

Namangan – 2024

Fan/modul kodi TR002.19	O'quv yili 2024-2025	Semestr 4	Kreditlar 4	
Fan/modul turi Tanlov	Ta'lif tili O'zbek/rus		Haftadagi dars soatlari 4	
1.	Fanning nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lif (soat)	Jami yuklama (soat)
	Tribologiya	60	60	120
2.	<p>I. Fanning mazmuni</p> <p>Fanni o'qitishdan maqsad - talabalarga sohadagi texnika va texnologiyalarning rivojlanishi va eski dastgohlarning yuqori samaradorlikka ega dastgohlarga va moslamalarga almashtirilishi natijasida, ularning ishqalanuvchi qismlarning tribotexnik xususiyatlarini yaxshilashning konstruktiv va texnologik usullarini, mashinalardan foydalanishdagi iqtisodiy ko'rsatkichlarga tribotexnik masalalarni hal qilinishining ta'sirini baholash usullarini, ularni moylash tamoyillari va to'qimachilik mashinalarining turli qismlari uchun moy tanlash va ularning o'rindoshlarini topishning ilmiy asoslari o'rganishni, ularni rivojlantirishdagi asosiy qoidalarni o'rgatish, olgan bilimlarini amaliyatda tadbiq etish ko'nikmasini hosil qilishdan iborat;</p> <p>Fanni vazifasi - Ushbu maqsadga erishish uchun talabalarning nazariy bilimlari, amaliy ko'nikmalar, vashina detallarining yeyilishi, yeyilishni hisoblash usullari, yeyilishga chidamlilikni oshirishning konstruktiv, texnologik va ekspluatatsion usullari, harakatdagi hamda tinch holatdagi moysiz ishqalanish, chegaraviy moylashdagi ishqalanish, gidrodinamik ishqalanish va dumalab ishqalanish, tribotexnik hamda moylash materiallari haqida umumiy ma'lumotga ega bo'lish; talabalarning amaliy faoliyatda olgan bilim, ko'nikmalarini kabi faoliyatda qo'llay olishiga erishish.</p>			
<p>II. Asosiy nazariy qism (Ma'ruza mashg'ulotlari)</p> <p>II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:</p> <p>1-mavzu: «Tribotexinka» fanining rivojlanish tarixi</p> <p>Kirish. «Tribotexinka asoslari» fanining rivojlanish tarixi. Uning xalq xo'jaligida tutgan o'rni, boshqa fanlar bilan bog'liqligi. Ishqalanish va yeyilishning asosiy tushunchalari.</p> <p>2-mavzu: «Tribotexinka» fanining xalq xo'jaligida tutgan o'rni</p> <p>Tribotexnikani qo'llanilishiga misollar. Ishqalanayotgan mashina detallarining ishslash muddati. Ishqalanish va yeyilishdan ko'rildigian zararlar.</p>				

3-mavzu: Detalning ishchi yuzalari va kontakt sirtlar*

Detal yuzalarining geometrisi. Yuzaning sifat ko'rsatkichlari. Yuzaning fizikaximiyaviy xossalari. Metall yuzadagi pardalar.

4-mavzu: Ishqalanish nazariyalari tasnifi. Ishqalanish koeffitsiyenti*

Ishqalanish nazariyalari tasnifi. Mexanik nazariya, molekulyar nazariya, energetik nazariya. Ishqalanish koeffisienti haqida tushuncha. Ishqalanish koeffisientini aniqlash. Ishqalanish koeffisientiga ta'sir etuvchi omillar.

5-mavzu: Yeyilish jarayonining umumiyligi tasnifi. Yeyilish jarayonining asosiy ko'rsatkichlari

Yeyilish haqida tushuncha. Yeyilish jarayonining asosiy bosqichlari. Yeyilish klassifikasiyasi. Yeyilish jarayoning asosiy ko'rsatkichlari. Yeyilish jarayoniga ta'sir etuvchi omillar. Yeyilmaslik effektining mohiyati.

6-mavzu: Metall va metallmas yuzalarining yeyilishi

Ishqalanuvchi juftlarning yeyilish mexanizmi. Metall yuzalarini yeyilish mexanizmi. Yeyilish turlari. Polimer va rezinaning yeyilish mexanizmi. Ishqalanuvchi juftliklarning yeyilish davri. Detallar orasida yeyilishni taqsimlanishi.

7-mavzu: Ishqalanish va moylash. Moylash turlari#

Moylar va ularning turlari. Moylash mexanizmi haqida tushuncha. Moylarning qovushqoqligi va ularning yeyilishga ta'siri. Chegaraviy moylash. Gidrodinamik moylash. Yarim suyuq moylash. Sirpanish podshipniklaridagi ishqalanish.

8-mavzu: Dumalab ishqalanish*

Dumalab ishqalanishning mohiyati. Dumalashdagi qarshilik momenti. Dumalab ishqalanish koeffisienti. Dumalab ishqalanishdagi yeyilish. Toliqib (charchab) yeyilish. Chechaksimon yeyilish.

9-mavzu: Abraziv yeyilish. Tribotexnika materialshunosligi

Abraziv yeyilish. Abraziv yeyilish turlari. Abraziv yeyilish jadalligi. Tribotexnika materialshunosligi. Umumiyligi ma'lumotlari. Po'lat va cho'yanni ishqalanish qismlarida ishlatalishi.

10-mavzu: Ishqalanuvchi juftliklar uchun ishlataladigan materiallar#

Friksion juftliklar va ularning materiallari. Antifriksion materiallar. Ishqalanuvchi juftliklar uchun materiallar tanlash.

11-mavzu: Maxsus sharoitlarda ishqalanish va yeyilish

Yuqori tezlikdagi ishqalanish va yeyilish. Agressiv muhitda ishqalanish va yeyilish. Vakuumda va o'ta past haroratda ishqalanish va yeyilish. Fretting-korroziya va vodorodli yeyilish.

12-mavzu: Yeyilish va sirt g'adir-budirligi ko'rsatkichlarini o'lchash usullari

Yeyilma va uning turlari. Yeyilmani aniqlash turlari. Ishqalanish va yeyilishni o'r ganuvchi mashinalar.

13-mavzu: Mashina detallarining yeyilishga bardoshliligini oshirish usullari. Detalning ishchi yuzalariga kimyoviy-termik ishlov berish

Konstruktiv usullar. Texnologik usullar. Qattiq yeyilishga bardosh qoplamlar. Sementasiyalash. Azotlash. Sianlash. Termodiffuziyali xromlash. Termik ishlov berish.

14-mavzu: Detalning ishqalanayotgan yuzalariga kimyoviy ishlov berish va qoplash usullari

Kimyoviy nikellash va oksidlash. Fosfatlash va sulfidlash. Qoplam xosil qilish usullari. Metallash. Polimerlar va ularning xossalari. Polimerlarning ishqalanish va yeyilishi. Antifriksion polimerlar.

15-mavzu: Tribologiya kelajakda*

Mashinasozlik va tribotexnikani rivojlanishi. Tribotexnikanining rivojlantirish yo'llari.

III. Laboratoriya mashg'ulotlari bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

Laboratoriya mashg'ulotlari uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. Metallarning ishqalanish koeffitsiyentin aniqlash.*
2. Metallmas materiallarning ishqalanish koeffitsiyentin aniqlash.
3. Juftlik orasidagi tolaning ishqalanish koeffitsiyentin aniqlash.
4. Sirpanib ishqalanayotgan juftlarning yeyilishni o'r ganish. #
5. Tishli g'ildirak yeyilish tezligini nazariy o'r ganish.
6. Tishli g'ildirak yeyilishni o'r ganish. #
7. Ishqalanayotgan juftlarda issiqlik ajralib chiqish tezligini o'r ganish.
8. Metall sirtlarida iplarning ishqalanish koeffitsiyentin aniqlash.

Laboratoriya mashg'ulotlari laboratoriya jihozlari bilan jihozlangan auditoriyada yoki ishlab chiqarish korxonalarida olib boriladi.

IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar

Mustaqil ta'lim bo'yicha tavsiya etiladigan mavzular:

1. Ishqalanish va yeyilish tarixi.
2. Asosiy tribotexnik terminologiyalar.
3. Metall yuzalarining yeyilishi. #
4. Polimer, rezina va ishqalanuvchi juftlikning yeyilishi.
5. Ishqalanuvchi juftliklar uchun ishlatiladigan materiallar.
6. Ishqalanish jufti materiallarini tanlash usullari.#
7. Detalning ishchi yuzalariga kimyoviy-termik ishlov berish.
8. Detalning ishqalanayotgan yuzalariga kimyoviy ishlov berish va qoplash usullari.

9. To'qimachilik mashinalaridagi ishqalanuvchi mexanizmlarni o'rganish.
 10. Yengil sanoati mashinalaridagi ishqalanuvchi mexanizmlarni o'rganish.#
 11. Paxta sanoati mashinalaridagi ishqalanuvchi mexanizmlarni o'rganish.
 12. Mashinasozlik mashinalaridagi ishqalanuvchi mexanizmlarni o'rganish.
 13. To'liqsiz o'zaroalmashinuvchanlik usuli.
 14. Tribotexnik materiallar va ularni tanlash.
 15. Texnologik mashinalarining tish uzatmalarini moylash usullari.#
 16. Ishqalanuvchi uzellarning tribotexnik xususiyatlarini yaxshilashning konstruktiv usullari.
 17. Ishqalanish uzellarini tribotexnik xususiyatlarini yaxshilashning texnologik usullari. #
 18. Ishqalanish va yeyilishni qorganuvchi zamonaviy mashinalar.
- Mustaqil o'zlashtiriladigan mavzular bo'yicha magistrantlar tomonidan referatlar tayyorlash va uni taqdimot qilish tavsiya etiladi

*- Rice University (top 147)

#- Namangan to'qimachi MCHJ

3.

V. Ta'lim natijalari/Kasbiy kompetensiyalari

Bakalavriant bilishi kerak:

- to'qimachilik va yengil sanoat mashinalarida ishqalanish va ueyilish, moylash tamoyillari va xususiyatlari; turli qismlari moy tanlash va ularning o'rindoshlarini topishning ilmiy asoslari, ularni moylash tizimlari; mashina va mexanizmlarni loyihalash jarayonida ularni puxtaligini ta'minlash; mashinaning konstruktsiyasini texnologik jixatdan qulaylishi ***xaqida tasavvurga ega bo'lishi: (bilim)***

-sirtlar tutashuv parametrlarini va tashqi ishqalanish koeffitsientlarini nazariy hisoblab topish usullari; tribotexnik konstruktsion materiallar tanlashning nazariy va amaliy jihatlari; ishqalanuvchi qismlarning tribotexnik xususiyatlarini yaxshilashning konstruktiv va texnologik usullari; mashinalardan foydalanishdagi iqtisodiy ko'rsatkichlarga tribotexnik masalalarni hal qilinishining ta'sirini baholash; ularda texnologik mashinalarni detallarini ishlash shart-sharoitlarini xisobga olgan xolda samarali foydalanishni ***bilishi va ulardan foydalana olishi; (ko'nikma)***

-detall materiallarini mexanik xossalarni aniqlashni; detallarni moylash; sirt yuza xossalarni; detal va materiallarga ishlov beruvchi zamonaviy texnologiyalarni; mashinasozlikda sanoatidagi turli ximiyaviy termik ishlov berish jarayonlarni amalgaloshirish ***ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak; (malaka)***

4.

VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari

- ma'ruzalar;
- intenfaol keys-stadilar;
- seminar (mantiqiy fikrlash, tezkor savol-javoblar);
- guruxlarda ishlash;
- taqdimotlar qilish;

	<ul style="list-style-type: none"> - individual loyihalar; - jamoa bo‘lib ishslash va himoya qilish uchun loyihalar; - virtual reallik; - gamifikatsiya; - mobil platforma; - courseslab; - java script; - autoplay.
5.	<p>VII. Kreditni olish uchun talablar:</p> <p>Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to‘la o‘zlashtirish, tahlil natijalarini to‘g‘ri aks ettira olish, o‘rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushoxada yuritish va joriy va oraliq shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo‘yicha yozma yoki test ishni topshirish</p>
6.	<p>Asosiy adabiyotlar</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Maxkamov R.G., Ismailov A.A. Tribotexnika asoslari. O’quv qo’llanma. 2003 y. <p>Qo‘srimcha adabiyotlar</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Abduvoxidov M. «Tribotexnika asoslari» ma’ruza matnlari. Namangan, NamMII, 2003. 2. Ikramov U. A. Tribonika. Mashinalarda ishqalanish va yegilsh. T. O’qituvchi 2004 y. 3. А.Н. Смоляк. ТРИБОТЕХНИКА. Учебно-методическое пособие. Минск БИТУ 2010. <p>Internet saytlari</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. http://www.tribot.com.ua/ 2. http://triboboplastnn.ru/ 3. http://nanovit-motor.ucoz.ru 4. www.ziyonet.uz 5. www.lex.uz 6. www.gov.uz 7. https://www.rice.edu/faculty-staff-resources
7.	<p>Fanning o‘quv dasturi Namangan to‘qimachilik sanoati instituti Kengashining 2024-yil “<u>26.08</u>” “<u>1</u>” sonli bayonnomasi bilan maqullangan.</p>
8.	<p>Fan/modul uchun mas’ul:</p> <p>O.Mamatqulov - Namangan to‘qimachilik sanoati, “Sanoat muhandisligi” kafedrasi mudiri, dotsent</p>

9.	<p>Taqrizchilar:</p> <p>Sh.Usmonov - Namangan_to‘qimachilik sanoati, «Sanoat muhandisligi» kafedrasи dotsenti, PhD.</p> <p>A.Maxkamov - NamMTI, “Texnologik mashina va jihozlar” kafedrasи professori, DSc</p> <p>I.Ermatov – “Namangan to‘qimachi NT” MCHJ korxonasi muhandis-mexanik</p>
----	---